KURASH SPORTIDA YOSH SPORTCHILARNING TEXNIK-TAKTIK TAYYORGARLIGINI RAQAMLI MONITORING ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Xankeldiyev Sher Xakimovich
Jismoniy tarbiya va adaptiv sport nazariyasi kafedrasi professori, p.f.d.
Kamoliddinov Umidjon Eldorjon o'g'li
Jismoniy madaniyat mutaxassisligi 1-kurs magistri
Farg‘ona davlat universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada kurash sport turi bilan shug‘ullanuvchi yosh sportchilarning texnik-taktik malakalarini shakllantirish va rivojlantirishda raqamli texnologiyalar orqali boshqaruv imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: kurash sporti, yosh sportchilar, texnik-taktik tayyorgarlik, raqamli boshqaruv, video-tahlil, sensor texnologiyalar, individual rivojlanish, raqamli kompetensiya.

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 8-iyuldagi PQ–221-son “2028-yil Los-Anjeles Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlariga tayyorgarlik to‘g‘risida”gi hamda 2024-yil 28-maydagi PQ–197-son “O‘zbekiston davlat sport akademiyasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlarida sport sohasini raqamli boshqarish, ilmiy asosda takomillashtirish vazifalari belgilab berilgan. Ushbu hujjatlar doirasida kurash sportida yosh sportchilarni tayyorlashda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, texnik-taktik malakani baholash va nazorat qilish tizimini yaratish muhim yo‘nalish sifatida belgilanmoqda. Shu bois raqamli boshqaruv asosida yosh sportchilarning tayyorgarligini optimallashtirish masalasi ahamiyat kasb etmoqda [1, 2].

Tadqiqotning natijalari va muhokamasi. Mavzu doirasida o‘quv-uslubiy adabiyotlar tahlili, ilmiy maqolalarni o‘rganish hamda malakali trenerlar bilan o‘tkazilgan suhbatlar shuni ko‘rsatadiki, sport ta’lim muassasalarida kurash sporti bilan shug‘ullanuvchi yosh sportchilarning trenirovka jarayonini zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida tahlil etish ularning texnik-taktik tayyorgarlik darajasini aniq baholash va individual rivojlanish yo‘nalishini belgilash imkonini yaratadi. Bunda video-tahlil, sensor o‘lchov va ma’lumotlar tahlili vositalari yordamida sportchilarning harakat samaradorligi oshdi, xatolarni barvaqt aniqlash imkoni yaratildi. Shu bilan birga, raqamli platformalar asosida trenirovka mashg‘ulotlarini rejalashtirish va natijalarni monitoring qilish tizimli yondashuvni ta’minlab, sport tayyorgarligi samaradorligini oshirishga xizmat qildi [4, 5].

Kurash sport turi bilan shug‘ullanuvchilarning texnika va taktikasi yuqori darajadagi jismoniy tayyorgarlik, tezkor fikrlash va aniq harakatlarni talab etadi. Bugungi kunda kurash sport turi bilan shug‘ullanuvchi yoshlarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish bilan birga, ularning jismoniy rivojlanishini va harakatlarini raqamli texnologiyalar asosida boshqarish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonda raqamli boshqaruv usullarini joriy etish orqali yosh kurashchilarning malakasini baholash, nazorat qilish va individual ravishda rivojlantirish imkoni yaratiladi [3, 5].

Texnik va taktika sportchining bellashuvda raqibga nisbatan eng maqbul usulni tanlash, harakatlarni kombinatsiya qilish, kontrataka va psixologik ustunlikni saqlash qobiliyati bilan belgilanadi. Ilmiy tadqiqotlar natijalari shundan dalolat beradiki, sportchilarning ruhiy holati bilan ularning texnik-taktik ko‘rsatkichlari o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjud. Masalan, bellashuvda g‘olib chiqqan kurashchilarda bezovtalik darajasi past, harakat samaradorligi yuqori bo‘ladi. Bu esa raqamli boshqaruv vositalari yordamida sportchining texnik va psixologik holatini aniq tahlil qilish imkoniyatini yaratadi.

Raqamli boshqaruv vositalari yosh kurashchilarning tayyorgarlik darajasini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy raqamli texnologiya orqali sportchilar holati va harakatlarini

tahlili orqali har bir trenirovka yoki musobaqa bellashuvdan keyin sportchining harakatlar tezligi, samaradorligi hamda texnik xatolari haqida ma’lumot yig‘iladi. Masalan video-tahlil dasturlari yoki tizimlari yordamida sportchi harakatlar video lavhalar orqali tahlil qilish har bir sportchiga o‘z xatolarini ko‘rish va ularni tuzatish imkonini beradi. Shu bilan birga, sportchilarning zaif jihatlarini aniqlash va individual trenirovka mashg‘ulotlari rejalarini shakllantirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, kurash sport turi bilan shug‘ullanuvchi yosh sportchilarning texnik-taktik malakalarini shakllantirish va rivojlantirishda raqamli texnologiyalar orqali boshqaruv imkoniyatlari katta istiqbolga ega. Bu usullar yordamida individual tayyorgarlikni optimallashtirish, real vaqtda tahlil o‘tkazish, strategik rejalashtirish hamda tezkor fikr almashinuv jarayonlarini takomillashtirish mumkin. Shu bilan birga, raqamli boshqaruv tizimlarini samarali tatbiq etishni ta’minlash uchun infratuzilmani mustahkamlash, raqamli savodxonlikni oshirish va axborot xavfsizligini kafolatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan manbalar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 8-iyuldagi PQ–221-son qarori «2028-yil Los-Anjeles Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlariga tayyorgarlik to‘g‘risida». – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti, 2024.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 28-maydagi PQ–197-son qarori «O‘zbekiston davlat sport akademiyasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida». – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti, 2024.
3. Tastanov N.A. Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati: darslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017. – 256 b.
4. Tolametov A.A. Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-pedagogik masalalari/ Innovatsii v pedagogike i psixologii 4 (7).